

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov, O.Raxmatov

Raqamli ta'lif muhitida bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi..... 8

B.Shermuhammadov, D.Namozova

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli..... 13

B.Shermuhammadov, B.Baratov

Bo'lajak o'qituvchilarni uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-madaniy fazilatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari 18

D.Yuldasheva, R.Bekmagambetova, Sh.Matkarmanova

Bolalar poetik matnlarini pedagogik dizayn vositasida o'rgatish..... 22

B.Qurbanova

Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'lifda ta'lif jarayonini samarali tashkil etish 25

I.Siddiqov

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari 29

A.Xo'jayev

Kadrlar tayyorlash sifatini monitoring qilishda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 33

X.Qodirov

Professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lish tasniflari 38

B.Baydjanov

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash samaradorligi 42

A.Turaxanov

Chaqiriqqacha harbiy ta'lif yo'nalishi talaba (kursant)larida jismoniy-taktik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari 49

R.Madalyev

Talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati..... 52

X.Yulbarsova

Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida 56

A.Soyibnazarov

Ta'lifda yangicha yondashuv tahlili: smart ta'lif..... 62

S.Kamchiyev

Ertalabki gimnastikani kichik va o'rta guruhlarda o'tkazish usullari va mohiyati..... 67

N.Mamatqulova

Ta'lifda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari 71

S.Sulaymanova

Tasviriy san'at fanlarida perspektivaning muhim ahamiyati va uning qo'llanilish xususiyatlari..... 75

M.Aripjanova

Professional ta'lif o'quvchilarining kasbiy kompetentsiyalariga talablar tahlili 80

D.Yo'idosheva

Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari 83

N.Dusimbetova

Bo'lajak jurnalislarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning amaliyotdag'i holati..... 88

T.Turgunbayev

Harbiy ta'lifda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda (kursantlarda) vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari 92

N.Yuldasheva

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish borasidagi metodik yondashuvlar 95

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK USULLARI

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

MODERN PEDAGOGICAL METHODS OF DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF ACMEOLOGICAL APPROACH

Yo'idosheva Dilfuza Alisher qizi¹

¹Yo'idosheva Dilfuza Alisher qizi

– Farg'ona davlat universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik yondashuv asosida kreativ kompetentligini rivojlantirishning maqsadi, imkoniyatlari, pedagogik shartlari va omillari ko'rib chiqilgan. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli va uni amalga oshirish zamonaviy usullari yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются цель, возможности, педагогические условия и факторы развития творческой компетентности будущих учителей на основе акмеологического подхода. На основе акмеологического подхода выделены педагогическая модель развития творческой компетентности будущих учителей и современные методы ее реализации.

Abstract

This article examines the purpose, possibilities, pedagogical conditions and factors of developing the creative competence of future teachers based on the acmeological approach. Based on the acmeological approach, the pedagogical model of developing the creative competence of future teachers and the modern methods of its implementation are highlighted.

Kalit so'zlar: akmeologik yondashuv, kreativ kompetentlik, pedagogik model, pedagogik usullar, o'zini-o'zi tarbiyalab rivojlantirish dasturi.

Ключевые слова: акмеологический подход, творческая компетентность, педагогическая модель, педагогические методы, программа самовоспитания и развития.

Key words: acmeological approach, creative competence, pedagogical model, pedagogical methods, self-education and development program.

KIRISH

Oly ta'lif muassasalari va ulardagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxassislarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi[1].

Bunday rivojlanish jarayoni birinchi navbatda faoliyatli yondashuv konsepsiysi talablari asosida tashkil etiladi. Bu o'z navbatida ijodkor, mustaqil fikrlovchi, hayotiy vaziyatlarni qat'iy yondashuv asosida hal eta oladigan, kasbiy kompetensiyalarni chuqur egallagan mutaxassislarni taqozo qilmoqda. Bunday pedagogik jarayonni tashkil qilishga asos bo'ladigan o'quv dasturlari akmeologik yondashuv prinsipi asosida yaratilishi lozim.

Birinchi marta "akmeologiya" tushunchasi 1928-yilda N.A.Ribnikov tomonidan rivojlanish psixologiyasining maxsus bo'limi-yetuklik yoki balog'at psixologiyasini belgilash uchun kiritilgan.

Bugungi kunda pedagogik akmeologiyaning vazifalari sifatida quydagilarni ta'kidlash mumkin:

- pedagogning insonparvarlik yondashuvi asosida alohida o'quv fanlari orqali talabalar shaxsini rivojlantirishga, kasbiy mahorat cho'qqilariga erishishga, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatning keyingi bosqichlariga tayyorlashda ularning motivlari, qadriyat yo'nalishlari, maqsadlarini hisobga olgan holda o'z faoliyatining usul va vositalarini tanlashiga yordam beradi;

- pedagog shaxsi va faoliyatining darajalari va bosqichlarini, bir professionallik darajasidan ikkinchisiga o'tishning akmeologik texnologiyalarini ochib beradi;

- shaxsiy va kasbiy rivojlanish va o'sish trayektoriyasini (akmeogramma) pedagog tomonidan individual ravishda tanlagan kasbiy mahoratga erishish yo'llari, shuningdek, pedagog shaxsiyatining kasbiy deformatsiyasini (emotsional "yonish" va charchoq va boshqalar) bartaraf etish usullarini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Akmeologik yondashuvning nazariy va uslubiy asoslarini yaratishda A.A.Bodalev, A.A.Derkach, N.V.Kuzmina, V.N.Maksimova, A.A.Rean, B.G.Ananev, V.N.Tarasova, S.N.Tolstov, N.V.Kuxarev, G.I.Xozainov, O.S.Anisimov kabi olimlarning hissasi kattadir. Akmeologik yondashuvning umumiy uslubiy tamoyillari orasida olimlar (determinizm tamoyili, rivojlanish tamoyili, insonparvarlik tamoyili), maxsus metodologik tamoyillar (subyekt faoliyati tamoyili, hayot faoliyati tamoyili, potensialni aktuallikka o'tkazish tamoyili, modellashtirish tamoyili, optimallik tamoyili, operatsion-texnologik tamoyili, qayta aloqa tamoyili) ni ajratadilar[2].

Ta'lif sohasida akmeologik yondashuvni qo'llashning asosiy maqsadi — pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining hozirgi darajasini yuqori, optimal darajaga ko'tarishdan iborat. "Ideal-mukammallik" sari bo'lgan bu yo'l doimiy harakat jarayonida pedagog rivojlanishining real xususiyatlarini takomillashtirishning optimal modeliga tayangan holda amalga oshiriladi. Pedagog rivojlanishning reproduktiv usullari o'rtaida tanlov qilish orqali nafaqat o'zini anglaydi, balki u o'zini sifat jihatidan o'zgartiradi, psixologik to'siqlarni yengadi, hayotiy maqsadlarini qayta ko'rib chiqadi, akmeologik jihatdan muhim fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatlarini izlaydi, shaxsiy va kasbiy rivojlanishning o'ziga xos trayektoriyasini belgilaydi[3].

Bo'lajak o'qituvchilarni yuqori malakali va raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash sifatida tayyorlashda akmeologik yondashuvning ta'lif imkoniyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

- bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi mazmunini akmeologik bilimlar bilan boyitishda;

- akmeologik usullar va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatida;

- yetuklik darajasi nuqtayi nazaridan zamonaviy talaba dunyosining "professional" qiyofasini yaratishga imkon beradigan shaxsning kasbiy mahoratining xususiyatlari va bo'lajak o'qituvchi faoliyati o'rtaсидagi bog'liqlikni tahlil qilishda;

- akmeologik tahlilni qo'llashda professionallikka erishishga yordam beradigan yoki unga to'sqinlik qiladigan qonuniyatlar, mexanizmlar, shartlar va omillarni izlashni o'z ichiga oladi va ular asosida shaxsni rivojlantirish yo'llari va usullari va uning professionalligi tanlangan prognozlar tuziladi;

- oliy pedagogik ta'lif sharoitida shaxsning erishilgan shaxsiy va kasbiy rivojlanishi darajasini aniqlash imkonini beradigan tashkiliy-metodik ta'minotga asoslangan umumiy xususiyatlarni tuzishda;

- pedagogik kasbiy mahorat cho'qqilariga erishishga qaratilgan izchil samarali shaxsiy va kasbiy rivojlanishni loyihalash va amalga oshirishga tayyorlik va qobiliyatni shakllantirishda;

- bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik ta'lif darajasini oshirishda, bu ularga mustaqil kasbiy va pedagogik faoliyatda doimiy akmeologik rivojlanishni amalga oshirishga imkon beradi (akmeologik savodxonlikdan akmeologik kompetensiya va refleksli boshqaruv tipidagi akmeologik madaniyatga erishishgacha)[4].

Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik yondashuv asosida kreativ kompetentligini rivojlantirishning muhim shartlari:

- rivojlanish uchun zarur resurs imkoniyatlarini ta'minlash, ta'lif muassasasida akmeologik muhitni yaratish. Akmeologik muhit — bu samarali shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayonlarini rag'batlantiradigan muassasa yoki tashkilotdagি professional muhit hisoblanadi. Akmeologik muhitning parametr-o'chovlari — yuqori shaxsiy va kasbiy standartlar, samarali shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratish, bunday rivojlanishni, bo'lajak o'qituvchilar o'rtaida akmeologik motivatsiyani rag'batlantirish va jamoada qulay ijobjiy psixologik muhit;

- ta'lif sohasida kasbiy mahoratga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;

- pedagoglik kasbining jozibali imijining ijtimoiy nufuzini oshirish;


- shaxsning subyektivlik darajasini oshirish[5].

PEDAGOGIKA

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik yondashuv asosida kreativ kompetentligini rivojlantirishning muhim omillari kasbiy qiyinchiliklarni bartaraf etish, psixologik to'siqlar va cheklovlardan ta'sirini qoplash imkonini beruvchi ko'nikmalardir.

Yuqoridagi nazariy-metodologik yondashuvlardan kelib chiqib tadqiqot ishi konsepsiyasini amalga oshirishning pedagogik modeli ishlab chiqildi(1-rasm).

1-rasm.**Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli**

Ushbu model akmeologik yondashuv asosida oliy o'quv yurti talabalarining kreativ kompetentligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ushbu modelda akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kreativ kompetentligini rivojlantirishning tuzilishi, xususiyatlari, o'z-o'zini rivojlantirish trayektoriyasi va

olingen natijalar tahlili o'zaro bog'liqlikda ifodalangan. Modelni amalga oshirish mexanizmi sifatida "Akmeologik yondashuv asosida o'z-o'zini kreativ rivojlantirish" dasturi ishlab chiqildi.

"Akmeologik yondashuv asosida o'z-o'zini kreativ rivojlantirish" dasturi

Maqsad:

- Akmeologik yondashuv asosida kreativ kompetentlik darajasi rivojlantirish;
- Akmeologik yondashuv asosida pedagogik faoliyatini takomillashtirish;
- kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, integratsiyalash va pedagogik faoliyatda qo'llash kompetentligini shakllantirish;
- o'qituvchining ichki dunyosini o'zgartirish.

Vazifalar:

1. Kreativ kompetentlik darajasi va o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlanganligini diagnostika qilish.
2. Amaldagi o'qitish texnologiyalari va kreativlikni rivojlantiruvchi eng samarali texnologiyalarni o'zaro taqqoslash hamda intensiv usul va texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish.
3. Professional o'zini-o'zi rivojlantirish dasturlari, modellarni loyihalash bo'yicha ko'rsatmalarni o'rganish. Ushbu mavzu bo'yicha ishlaydigan o'qituvchilar bilan o'zaro aloqalarni kengaytirish.
4. Muammo bo'yicha ishning asosiy bosqichlarini, yo'nalishlarini, shakllarini aniqlash.
5. O'z-o'zini rivojlantirish dasturini amalga oshirish, tajribani umumlashtirish.
6. Kasbiy jarayon samaradorligini mustaqil kuzatib borish, o'z-o'zini nazorat qilish.
7. Ijtimoiy tarmoqlarda o'qituvchining portfeli va o'z pedagogik faoliyatini yorituvchi telegram kanalini yaratish.

Kutilayotgan natija:

1. Kreativ kompetentlik darajasini oshirish;
2. Pedagogik faoliyatida innovatsion pedagogik texnologiya elementlarning kiritilishi.
3. O'z-o'zini rivojlantirish dasturi asosida o'z faoliyatini mustaqil tahlil qilib borish.
4. Pedagogik faoliyatini ommalashtiruvchi telegram kanali va elektron saytni yaratish hamda takomillashtirish. Ushbu kanal orqali o'z portfoliosi, o'quv va metodik materiallar, master-klasslar va onlaysen seminar-treninglar vositasida tajriba almashish.

ISH BOSQICHLARI

1-jadval

No	Bosqichlar	Vazifalar	Faoliyat yo'nalishlari	Amalga oshiriladigan vaqt
1.	Diagnostika - analitik bosqichi	1. Shaxsiy va kasbiy mahoratni oshirish. 2. Tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.	1. Muammo bo'yicha adabiyotni o'rganish. 2. Diagnostika qilish usulini izlash va tanlash.	Sentyabr-dekabr 2020-yil
2.	Bashoratlar va rejalashtirish bosqichi	1. O'z-o'zini kreativ rivojlantirishning maqsadi, mazmuni, usul va vositalarini aniqlash. 2. Shaxsiy rivojlanish yo'lini rejalashtirish. 3. Ishlarni rejalashtirish.	1. O'z-o'zini kreativ rivojlantirishning samarali shakl, usul va vositalarini tanlash. 2. Qo'yilgan vazifalarning ketma-ketligi va amalga oshirish muddatini belgilash. 3. Telegram kanalini va o'qituvchining elektron portfoliosini yaratish.	Yanvar - may 2021-yil
3.	Tashkiliy- faoliyatli bosqich	1. O'z-o'zini kreativ rivojlantirish bo'yicha shaxsiy loyiha ishlab chiqish.	1. Individual rivojlanish trayektoriyasini bo'lajak o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish faoliyatiga jalb qilinishi orqali amalga oshirish. 2. Kerakli dasturlarni yaratish.	Sentyabr-Dekabr 2021-yil
4.	Yakunlovchi	1. O'z-o'zini kreativ	1. Yakuniy diagnostika.	Yanvar-iyun

PEDAGOGIKA

	bosqich	rivojlantirish jarayonning tashkiliy va mazmunli faoliyat samaradorligini aniqlash. 2. Erishilgan kreativ rivojlanish darajasini tahlil qilish va baholash, ularni qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan taqqoslash. 3. Kreativ rivojlanish darajasini yanada oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilish.	2. Pedagogik telegram kanali va ijtimoiy tarmoqlarda elektron portfolio yaratish.	2022-yil
--	---------	--	---	----------

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentlik darajasini aniqlash uchun o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining dastlabki (ta'kidlovchi) bosqichi tasdiqlangan dastur asosida tashkil etilib, kuzatish, suhbat, anketa so'rovlari kabi metodlardan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari davomida dastlab akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlanganlik darajasi tahlil qilindi va maxsus metodikalar yordamida baholandi[6].

Tajriba obyekti sifatida akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni tanlab olinib, tanlab olingan tajriba-sinov obyektlarda jami 281 nafar pedagogika-psixologiya yo'nalishi 3-4 kurs (Qo'qon davlat pedagogika instituti 97 nafar, Farg'ona davlat universiteti 95 nafar, Namangan davlat universiteti 92 nafar) talabalari respondent sifatida ishtirok etdi.

XULOSA

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, amalga oshirilgan tadqiqot natijasida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik model, uni amaliyotga joriy etishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalarning samaradorligi aniqlandi va mazkur pedagogik modelni takomillashtirish yo'llari ko'rsatildi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi maqsadli tavsiyalarni beramiz:

- Oliy ta'lif muassasalarida ta'lifni tashkil etishning mayjud shakllari bo'lgan ma'ruba, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil vazifalarning mazmuniga zamонавиу pedagogik texnologiyalarni kengroq kiritish;
- Ma'ruba darslar muammoli muloqot ta'lif shaklida, seminar darslarni kreativ tafakkurni va amaliy mashg'ulotlarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishligi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz;
- Mustaqil ishlarni tashkil etishda individuallikka ahamiyat qaratish va kreativ kompetentlikni rivojlanishga qaratilgan topshiriqlarni oflayn va onlayn amalga oshirish; Talabalarni individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishda tyutorlar va professor-o'qituvchilarni ta'lif sifatidagi mas'uliyatini oshirish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni [PF-5847 08.10.2019. Manba: www.gov.uz](#)
2. Д.М.Кошман Научно-методические основы акмеологической компетентности будущего учителя: практическое руководство;/ М-во образования Республики Беларусь, Гомельский гос. ун-т им. Ф.Скорины. – Гомель : ГГУ им. Ф. Скорины, 2017.
3. Oranova, N. M. (2021). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIVLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(9).
4. Арипджанова А. Таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг креатив салоҳиятини ривожлантириш: пед. фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дис. автореф. – Т.: 2017.
5. O'ranova, N. M., & Yo'Ldosheva, D. A. Q. (2022). OLIY O'QUV YURTI TALABALARIDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA FAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA SAMARALI YO'LLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 97-105.
6. Yo'ldosheva, D. A. (2022, August). TALABALARDA KREATIVLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH MASALASI TA'LIM TIZIMIDA SAMARADORLIKKA ERISHISHNING KAFOLATI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 6).